



ZULFIYA ISROILOVA VA GULANDOM TOG'AYEVA
SHE'RIYATINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI

Ulasheva Dilnura Qodirali qizi

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqola XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi Zulfiya Isroilova hamda mustaqillik davri she'riyatining iste'dodli vakili Gulandom Tog'ayeva ijodini qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etishga bag'ishlanadi. Tadqiqotda har ikki shoira lirikasi misolida, o'zbek she'riyatida ayollar ijodining badiiy-estetik takomili, lirik qahramon konsepsiyasi va badiiy tasvir vositalarining transformatsiyasi tahlil etiladi.*

Zulfiya ijodidagi klassik poetik an'analar, sadoqat va matonat pafosining ijtimoiy-falsafiy asoslari Gulandom Tog'ayeva she'riyatidagi zamonaviy subyektivizm, individual psixologizm tamoyillari bilan o'zaro muqoyasa qilinadi. Maqolada shoirlar uslubidagi metaforik tafakkur va ritmik-intonatsion xususiyatlar ilmiy dalillar asosida ochib berilgan. Shuningdek, adabiy davrning ijodkor estetik idealiga ta'siri nazariy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijalari o'zbek she'riyatida ayollar ijodining badiiy xususiyatlarini tizimli o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch iboralar: *qiyosiy-tipologik tahlil, lirik qahramon, psixologizm, estetik ideal, badiiy mahorat, metaforik tizim, o'zbek she'riyatida ayollar ijodi.*

Kirish. *O'zbek ayollar she'riyati uzoq yillik tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tib, bugungi kunda ham shaklan, ham mazmunan yangilanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Ushbu jarayonni anglashda an'anaviy lirikani yuksak bosqichga olib chiqqan Zulfiya Isroilova hamda zamonaviy she'riyatda o'zining psixologik uslubi bilan ajralib turuvchi Gulandom Tog'ayeva ijodini qiyosiy tahlil etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.*



Vafo va sadoqat kuychisi, nozik satrlar ila qalblarga bahor nafasini ulashuvchi shoira **Zulfiya Isroilova** 1915-yilda Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tavallud topgan. Dastavval boshlang'ich maktabda, so'ngra xotin-qizlar bilim yurtida tehsil olgan. Ilk she'riy to'plami hisoblanmish "Hayot varaqlari" talabalik yillarida (17 yoshida) nashr etilgan. 1935-yildan 1980-yilgacha, qariyb o'ttiz yilga yaqin respublikamizda keng tarqalgan "Saodat" nomli xotin-qizlar jurnalida bosh muharrir bo'lgan. Zulfiya uzoq ijodiy umri davomida o'ttizga yaqin she'riy to'plamlar, o'ndan ortiq dostonlar yaratdi. Shoiraning bunday harakatlari nafaqat yurtimizda, balki dunyo miqyosida e'tirof etildi. Xalqaro "Javaharlal Neru" (1968), "Nilufar" (1971) mukofotlari hamda Bolgariyaning "Kirill va Medofiy" (1972) ordeniga sazovor bo'lgan.

Zulfiya yaratgan sadoqat va matonat maktabining mustaqillik davri she'riyatidagi estetik davomchisi **Gulandom Tog'ayevadir**. Adiba 1972-yilning 1-yanvarida Surxondaryo viloyati, Denov (hozirgi Oltinsoy) tumanidagi Katta Vaxshivor qishlog'ida tavallud topgan. Shoiraning shu kungacha "Chaqmoq xo'rsiniqlari", "Muhabbat asri", "Men izlagan kema", "O'n yetti yoshlilar mamlakati", "Suvaydoga yo'l", "Ishq handasasi" kabi she'riy to'plamlari nashr qilingan. Gulandom Tog'ayevaning badiiyat yo'lidagi izlanishlari e'tibordan chetda qolmadi. 1999-yilda "Shuhrat" medaliga sazovor bo'lgan shoira ijodiy faoliyati davomida "Oltin meros" xayriya jamoa fondining "Oltin meros" medali bilan mukofotlangan (2025-yil).

Zulfiya Isroilovani o'zbek she'riyatining "poydevori" deb e'tirof etsak, Gulandom Tog'ayevani esa o'sha poydevor ustiga qurilgan "qasr" sifatida tasvirlash mumkin. Bu ikki shoira ijodini o'zaro yaqinlashtiradigan jihat — ayol qalbi tug'yonlarining samimiyligi bo'lsa, ularni ajratib turuvchi asosiy estetik xususiyat — badiiy tasvir va lirik qahramonning dunyoni idrok etish usulidir. Zulfiya lirikasida tabiat va inson — hamohang yaxlitlikni tashkil etsa, Gulandom Tog'ayeva she'rlarida tabiat ko'proq inson ichki dunyosining ramziy va mavhum in'ikosi



sifatida namoyon bo‘ladi. Bunga misol tariqasida quyidagi satrlarni keltirish mumkin:

<p><i>Salqin saharlarda, bodom gulida, Binafsha labida, yerlarda bahor. Qushlarning parvozi, yellarning nozi, Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...</i></p> <p><i>Mana qimmatligim, yana bahor kelib, Seni izlab yurdi, kezdi sarsar. Qishning yoqasidan tutib so‘radi seni, Ul ham yosh to‘kdi-yu, chekindi nari.</i></p> <p style="text-align: center;">Zulfiya Isroilova</p>	<p><i>O‘riklar ham gul ochmoqda, vafosizim, Ul daraxtga suyanib es-hushim qolgan. Sen sevgan gul is sochmoqda, vafosizim, Rayhonlarning hidlarida ishim qolgan.</i></p> <p><i>Umid gulim qirqdi qaysi gul qaychisi, Qaysi bag‘ri butun uning dil kuychisi, So‘zim tinglab xanda qilar atirgullar, Bu she‘r seni sevganlarning suyunchisi.</i></p> <p style="text-align: center;">Gulandom tog‘ayeva</p>
---	--

Gulandom Tog‘ayeva Zulfiyaxonimdan ancha yillar o‘tib ijodga kirib kelgan bo‘lsada, Zulfiyaning iliq e‘tirofi va qiziqishiga sazovor bo‘la oldi. Bir gal aynan yoshlar she‘riyati haqida gap ketganda Zulfiya Gulandom Tog‘aevaning “Sharq yulduzi” jurnalida chop etilgan turkumi haqida iliq fikrlar aytgan. “Ijodkorlarning tasavvurlari keng bo‘ladi. Lekin bu qizning she‘rlari bizning tasavvur doiramizdan ham chiqib ketganga o‘xshaydi. Oxirigacha hamma ma‘nosini anglab yetolmaysan-u, anglaganing o‘zingga yoqadi”.¹

Zulfiyaning she‘rni o‘qiganda barcha ma‘noni tushunishga intilishi va o‘zi ham

¹Rahimboyeva Q. “Yoshlik” 2014.

²Naim Karimov. Ikki chashma. www.zulfiyaxonim.uz

she‘rlarida ma‘noni birato‘la berishni xohlashi haqida Hamid Olimjonning shunday tanqidi bor. “Siz har bir she‘ringizda birato‘la hamma gapni aytib olmoqchi bo‘lasiz, vaholanki, bunday qilish yaramaydi. Keyin bilasizmi, she‘rni oxiridan boshlab yozish kerak...”²



Bundan ko'rinib turibdiki, Zulfiyaning maqsadi bo'lgan she'rdagi to'liq ma'no o'rnini Gulandom Tog'ayevaning she'rlaridagi qalblarga yetib borgan, Zulfiya ta'biri bilan aytganda "anglashilgan ma'no"ga o'zgardi.

Ustoz-shogird shoiralarning asarlari o'quvchilar tomonidan bir xil qiziqish bilan mutolaa qilinadi. Chunki ulardagi inson ruhiyati, ayriliq, vatan madhi kabi mavzular o'xshash badiiy-estetikaga ega. Bunga sabab qilib, ikki shoiraning ham hayot yo'llaridagi iztirobli holatlari, ruhiy kechinmalari va brinchi navbatda ularning ayol shoira ekanligini keltirish mumkin.

Xulosa. Hozirgi kunda o'zbek she'riyatida ayollar ijodining yuksaklarga bo'y cho'zgan daraxti deb Zulfiyaxonim ko'rilsa, uning yuksakligiga yetajak darajada gurkirab o'sayotgan daraxt deb Gulandom Tog'ayevani ko'rish mumkin. Ikki adib ijodida ham hijron o'ziga xos badiiy tarzda talqin qilinadiva bu hozirgi o'zbek she'riyatida inson ruhiyatining murakkabligini aks ettiruvchi muhim omil sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1 Karimov. Ikki chashma. www.zulfiyaxonim.uz
- 2 Mirvaliyev S. O'zbek adiblari. Toshkent: "Yozuvchi", 2000
- 3 Rahimboyeva Q. "Yoshlik" 2014.
4. Tog'ayeva G. Uyg'oqlikka da'vatkor ijod. "Yoshlik" 2009.
5. https://uza.uz/oz/posts/gulandom-togayeva-yurtimga-munosib-bir-farzand-bolish-eng-oliy-istagim_753721